

## QORAQALPOQ MUSIQA MADANIYATIDA MUSIQALI DRAMA JANRINING SHAKLLANISHI

Gulbahor Yo'ldosheva Quwanishbay qizi

O'zbekiston davlat konservatoriysi Nukus filiali 2-bosqich talabasi.

Rano Abatbaeva

Ilmiy maslahatchi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11670369>

*Annotatsiya. Ushbu maqolada musiqali drama asarlarning paydo bo'lishi, ilk teatr larning tashkil topishi, turli hududlarda teatr san'atining ravnaq topishi haqida so'z boradi. Mahmud Behbudi, Abdirauf Fitrat, Abdullo Avloniy, Hamza Hakim-zoda Niyoziy, Muhiddin Qori Yoqubov, Mannon Uyg'ur, G'ulom Zafariy, To'xtasin Jalilov, Halima Nosirova, Komil Yashin, Mirshohid Miroqilov, Tamara xonim, Mukarrama Turg'unboeva, Nurxon Yo'ldoshxojayeva, Tursunoy Saidazimova, Usta Olim Komilov, Lutfixonim Sarimsoqova, Tolibjon Sodikov va boshqa ko'plab fidokor san'atkorlar yaratgan durdona asarlarning sharxlari keltirilgan, shu qatorda qoraqalpoq musiqa san'atida musiqali drama janrida yaratilgan asarlarga ham to'xtalib o'tilgan.*

*Kalit so'zlar: musiqa, drama, davriya, janr, teatr, opera, balet, sonata, leyttema, xromatika, komediya, miniyatyura, operetta.*

## THE FORMATION OF THE MUSICAL DRAMA GENRE IN THE MUSIC CULTURE OF KARAKALPAK

*Abstract. This article talks about the emergence of musical and dramatic works, the creation of the first theaters and the development of theatrical art in different regions. Mahmud Behbudi, Abdirauf Fitrat, Abdullah Avloni, Hamza Hakim-zoda Niazi, Muhiddin Kori Yagubov, Mannon Uygur, Gulom Zafari, Tokhtasin Jalilov, Halima Nasirova, Kamil Yashin, Mirshahid Mirotsilov, Mrs. Tamara, Mukarrama Turgunboeva, Nurkhan Yoldoshkhodzhaeva, Tursunoy mova, Usta Reviews are presented of masterpieces created by Olim Komilov, Lyutfikhan Sarimsokova, Talibjon Sodikov and many other dedicated artists, as well as works created in the musical and dramatic genre of Karakalpak music.*

*Key words:* music, drama, era, genre, theater, opera, ballet, sonata, leitme, chromatics, comedy, miniature, operetta.

## ФОРМИРОВАНИЕ ЖАНРА МУЗЫКАЛЬНОЙ ДРАМЫ В МУЗЫКАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЕ КАРАКАЛПАК

***Аннотация.** В данной статье говорится о возникновении музыкально-драматических произведений, создании первых театров и развитии театрального искусства в разных регионах. Махмуд Бехбуди, Абдирауф Фитрат, Абдулла Авлони, Хамза Хаким-зода Ниязи, Мухиддин Кори Ягубов, Манон Уйгур, Гулом Зафари, Тохтасин Джалилов, Халима Насирова, Камиль Яшин, Миришайд Мироцилов, госпожа Тамара, Мукаррама Тургунбоева, Нурухан Ёлдошходжаева, Турсуной мова, Уста Представлены рецензии на шедевры, созданные Олимом Комиловым, Лютфиханым Саримсоковой, Талибжоном Содиковым и многими другими самоотверженными артистами, а также произведения, созданные в музыкально-драматическом жанре каракалпакской музыки.*

***Ключевые слова:** музыка, драма, эпоха, жанр, театр, опера, балет, соната, лейтме, хроматика, комедия, миниатюра, оперетта.*

Respublikamiz madaniy hayotida musiqali drama va komediya teatrlarining faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Musiqali drama va komediya teatrлari va balet, operetta, drama, miniyatyura, yoshlar, bolalar va qo‘g‘irchoq teatrлari kabi mamlakatimizda yashayotgan barcha millat vakillarining ma’naviy yuksalishiga barakali hissa qo‘shib kelmoqda.

XX asr boshlariда o‘lkamizda yuzaga kelgan musiqali drama tarixiy ahamiyatga molik sharaflı yo‘lni bosib o‘tdi. Mazkur sohaning etakchi dargohi bo‘lmish Muqimiy nomli poytaxt teatri hamda viloyat teatrлari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi teatrлarining aksariyatining o‘ziga xos yaratilgan sahna asarları xalqimizning madaniy va ma’naviy boyligi hisoblanadi. Turli davrlarda yaratilgan o‘nlab musiqali sahna asarlar teatr tarixida va bugungi kunda ham mumtoz merosimiz sifatida ardoqlanib kelinmoqda. Musiqali teatr o‘z vaqtida respublikamiz madaniy hayotining faol markazlaridan biri sifatida xalqimizning ezgu niyatlarini badiiy vositalar bilan ifodalashda katta yutuqlarni qo‘lga kiritdi. Ijtimoiy hayotning dolzarb masalalarini yoritishda, xalqimizni yangi zafarlarga chorlashga kelishida musiqali teatr jamoatchiligi ulkan hissa qo‘shishga tuyassar bo‘ldi. Mana shunday vazifalarni amalga oshirishida, musiqali teatr poydevorini qurishda, uning rivojlanishi va kamol topishida o‘zbek xalqining is’tedodli adabiyot va san’at vakillari katta hissa qo‘shganlar. Ular orasida Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdirauf Fitrat, Abdullo Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Muhiddin Qori Yoqubov, Mannon Uyg‘ur, G‘ulom Zafariy, To‘xtasin Jalilov, Halima Nosirova, Komil Yashin, Mirshohid Miroqilov, Tamara xonim, Mukarrama Turg‘unboeva, Nurxon Yo‘ldoshxojayeva, Tursunoy Saidazimova, Usta Olim Komilov, Lutfixonim Sarimsoqova, Tolibjon Sodiqov va boshqa ko‘plab fidokor san’atkirlarni nomlarini aytip o‘tish mumkin.

O‘zbek teatrining poydevorini qurush va uning ravnaq topishida boshqa millat san’atkirlari N.Mironov, V.Uspenskiy, A.Kozovskiy, G.Mushel, R.Glier, S.Vasilenko, B.Nadejdin, B.Gienko, G.Sobitovlar hissa qo‘shganlar. Ushbu kompozitorlar nafaqat ovzbek xalq merosini balkim, qoraqalpoq musiqasining rivojlanishga ham katta hissa qo‘shgan insonlardir.

Ular o‘zbek va qoraqalpoq musiqa merosini o‘rganib va o‘zbek bastakorlari bilan hamkorlikda musiqali spektakllar yaratishgan. Ular sahna asarlarining va klavir partituralarini yozishda, o‘zbek xalq kuylarini simfonik orkestrga moslashtirishda va milliy kompozitorlarni tarbiyalashda ko‘maklashganlar.

Bu davrda yangi avlod dramaturg va kompozitorlari dadil qadamlar bilan ijod sohasiga kirib kelgan. Ular orasida dramaturglardan Sobir Abdullo, Uyg‘un(Otaqo‘ziyev), Shukur Sa’dullo, Turob To‘la, Shuhrat, Husniddin Sharipov, Ramz Bobojon va boshqalar, bastakor va kompozitorlardan esa Po‘latjon Rahimov, Manas Leviyev, Doni Zokirov, Olimjon Halimov, Sobir Boboev, Ibrohim Hamroev, Fattax Nazarov, Ikrom Akbarov, Matniyoz Yusupov, Sulton Haytboev va boshqalarni keltirib o‘tsak bo‘ladi. O‘zbekiston zaminida bunyodga kelgan musiqali drama va komediya teatr san’atining turli davrlari, xilma-xil musiqali spektakllar, ayrim dramaturg va bastakorlarning ijodi to‘g‘risida musiqashunos, teatrshunos va adabiyotshunoslar tomonidan ko‘plab taqriz, maqola va kitoblar ham yaratilgan, lekin ularning aksariyati rus tilida yaratilgan.

Masalan: musiqashunos E.Romanovskayaning «Музыкальный театр Узбекистана» maqolasida O‘zbekistonda musiqali teatrning shakllanishi “Halima”, “Purtana”, “Farxoda va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Gulsara” musiqali dramalari misolida ko‘rsatib berilgan<sup>1</sup>.

Musiqashunos V.Belyayev «Узбекский музыкальный театр в Москве» maqolasida “Farxod va Shirin”, “Gulsara” spektakllari tahlil qiladi<sup>2</sup>. Tetatrshunos “Советская музыка”, F.Jo‘ravening «Сценарий историко-музыкальной драмы» “Gusara” maqolasida mazkur spektaklning turli davrlarda yuzaga kelgan sahnaviy hayoti to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan. Musiqashunos K.Olimboevaning «Узбекская музыкальная драма» tadqiqotida musiqali teatr rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari va ayrim asarlarining ilmiy tahlillari berilgan<sup>3</sup>. Kompozitor etnogrof-olim V.Uspenskiy “Научное наследие” maqolasida musiqali spektakllar yaratish borasidagi o‘z tajribalarini aytib o‘tgan. Mana shu davrlarda yaratilgan musiqali dramalardan “Ravshan va Zulkumor”, “Muqimiy”, “Nurxon”, “Vatan ishqisi”, “Oltin ko‘l”, “Toshbolta oshiq”, “Ajab savdolar”, “Kimga to‘y, kimga aza”, “Qizil durrali nozik niholim”, “Toshkentning nozanin malikasi” asarlarining tahliliga bag‘ishlangan “Узбукская музыкальная драма”, “Некоторые проблемы узбекской музыкальной драмы”, “Узбекская музыкальная драма и комедия” ilimiylar hamda mazkur sohada chuqur iz qoldirgan yetuk kompozitor Manas Leviev ijodiga bag‘ishlangan monografiyani qayd etish mumkin<sup>4</sup>.

1991-yildan boshlab mustaqillik yillarda respublikamizning madaniy va ijtimoiy hayotida, musiqa, teatr sohasida juda katta o‘zgarishlar ro‘y berdi. Drama so‘zi yunoncha atama bo‘lib, (Drama-harakat, fikr to‘qnashuv harakati) dialog va monolog badiiy so‘z va sahna harakati orqali tuziladi<sup>5</sup>. Boshqacha qilib aytganda drama jamiyat tuzumlaridagi nuqsonlar, insonlarning munosabatlarida yuz beradigan muammolar, ziddiyatlar, qarama-qarshi g‘oya va fikrlar, turli yaxshi va yomon hatti-harakatlar kabilar bilan bog‘liq bo‘lgan adabiy sahnaviya asardir. Tarixiy manbalarning ma’lumot berishicha, antik dunyoda, she‘r va musiqa ohangini sintez qilish, turli marosimlarda qo‘sinq va madhiyalar aytish, hamma xalqlarda keng qo‘llangan bo‘lsa-da, lekin dramaga ovoz va cholq‘u musiqani kiritish va ularni bir-biriga bog‘lash orqali sahna asarni ta’sir kuchini boyitish eng avval yunon (Ellada) davlatida eramizdan avval V-VI asrlarda keng rivojlangan edi. Qadimgi yunonda “Dionis”, “Orfey” afsonalari ifodalashda va yozuvchi-dramaturg, “tragediya” janrining asoschilari: Essil, Sofokl va Evripidlarning fojiaviy sahna asarlarida so‘z, musiqa va sahna harakati san’atlari muhim rol o‘ynagani haqida juda ko‘p ma’lumotlar mavjuddir. Bu esa monumental va ommaviy sahna asarlar yaratishda olamshumul ahamiyatga ega bo‘lish bilan bir qatorda insoniyatning eng ulkan yutuqlaridan biridir”.

Ma’lumki antik dunyoda, qadimgi yunon davlatida turli ilm-fan, falsafa, estetika, etika masalalari, badiiy adabiyot, musiqa va boshqa san’at turlari mukammal ravishda taraqqiy etib kelgusida jahon madaniyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Bu o‘rinda O‘rta Osiyo xalqlari ham chetda qolmadi. Iskandar Zulqarnaynning (IV e.a.) O‘rta Osiyoga qilgan yurishi natijasida buyuk yunon madaniyati namunalari bu erga kirib kelgan edi. Lekin ular kelgunga qadar o‘zbek qoraqalpoq va

<sup>1</sup> Romanovskaya.E “Muzikalniy teatr Uzbekistana” Jurnal “Sovetskaya musika”, №4, 1937

<sup>2</sup> Belyayev.V “Uzbekskiy muzikalniy teatr v Moskve”. Jurnal “Sovetskaya musika”, №6, 1937

<sup>3</sup> “Jabborov.A “Musiqiyy drama va komediya janrlari O‘zbekiston kompozitorlarining ijodida”FTDK DITAF “Toshkent-2000, b-7

boshqa O‘rta osiyo xalqlarning hayoti, mehnati, yashash tarsi, tabiyati, diniy, falsafiy tafakkuri bilan bog‘liq: turli-tuman afsonalar, og‘zaki va yozma adabiyot, xilma-xil janrlı musiqa va raqs san’atlari, turli marosimlarga bag‘ishlangan tomosha-o‘yinlar, tasviriy va haykaltaroshlik san’atlari miloddan avvalgi va kelgusi asrlarda tarqqiyot etganlari to‘g‘risida grek, xitoy, hind, arman tarixchilarini va sayyohlari, arxeologik qazishmalar, kelgusi asrlarda bunyodga kelgan tarixiy va nazariy ilmiy manbalar muhim ma’lumotlar beradilar. Shuni eska olsak bo‘ladi, Turkiston xalqlarining musiqa madaniyati va boshqa san’atlar rivojlanishi bosqinchilarining madaniyati va san’atidan yuqori turar edi. Bu kurashlar haqida, ayniqsa, turli afsonalar va qahramonlik dostonlarda turkey xalqlarning o‘z mustaqilliklari uchun olib brogan mardonavor jangler, qahramonlar jasoratlari so‘z va musiqa san’atlarida ifodalangan. Vatanga bo‘lgan muhabbati to‘g‘risidagi hikoya qiluvchi doston haqida Xitoy tarixchisi Chjan Tsyan ma’lumot beradi, yunon tarixchisi Gerodat (484-425), “Tarix”<sup>6</sup> kitobida masagetcarning yo‘lboshchisi Tumaris jasorati haqida, Rustam obrazi va uning janglari, malika Taxminaga bo‘lgan muhabbati, tanimagan otasi ko‘lida qatl qilingan o‘g‘li Suhrobning o‘limi to‘g‘risida hikoya qiluvchi doston va qovshiqlar mustaqil marosim tomoshalariga aylanib kelgan.

O‘rta Osiyoga Islom dini kirib kelgunga qadar (yani eramizni VIII asrga) qadar, bu o‘lka xalqlari antik dunyoga va kelgusi feodal tuzumlaridan ham, madaniyat va san’at taraqqiyotida faol ishtirok etib, uning xazinasiga ilm-fan, me’morchilik (arxitektura), tasviriy va haykaltaroshlik san’atlari, og‘zaki va yozma badiiy adabiyot, musiqa va raqs san’atlarida juda boy madaniy meros yaratib qoldirganliklari haqida turli arxeologik qazilmalarda tarixiy va ilmiy manbalarda dalolat beradi.

Somoniylar (IX-X), Qoraxoniylar (XI-XII), va Xorazm (XI-XIII) davlatlarida ilm-fanga, adabiyotga, tarixga, san’atga, Yunon va arab ma’naviyatlariga qiziqish yana avj oldi. Savdostotiqlar tiklanib, hunarmandchilik shaharlar keng ravnaq topdi. Dunyoviy ilimlar bilan Islom dinshunoslik limi han keng miqosda rivojlandi. Bu davrning ma’naviyatining enh muhim xususiyati va yutug‘i shubdaki, u har bir sohada o‘z davri uchun yangi kashfiyat yaratgan kata qomusiy olim-mutaffakkirlarni, shoir va san’atkorlarni voyaga etkazdi. Ularning ijodiy faoliyatları orqali tabiyatshunoslik, tibbiyat, astronomiya, matematika ilmlari, falsafa, ahloq, estetika, pedagogika, huquq, adabiyot, san’atning juda ko‘p turlari ana shu zaminda taraqqiy etdi.

Madaniy-ma’naviyemerosimizning ulkan qismi, tarixda Uyg‘onish davri deb nom olgan, davrning mahsulidir.

O‘rta Osiyoda, o‘zbek va tojik xalqlari, shu ikki Uyg‘onish (IX-XII va XV asr o‘rtalaridan XVI asrgacha) davrda ilm-fan, adabiyot va san’atda kata olamshumul yutuqlarga ega bo‘lsada, lekin kelgusi XVI asrlardan to XX asrgacha, turli sabablarga ko‘ra bu o‘lkada madaniyatning hamma sohalarida ijodiyot asta sekin so‘nib bordi. Tarixdan ma’lumki, Ovropa mamlakatlarda Uyg‘onish davri XV asrdan boshlandi va kelgusi asrlarda ilm-fan, adabiyot, san’at turlari, shu jumladan teatr san’atining hamma tarmoqlari va usullari taraqqiy etdi.

O‘zbek “xalq teatri”da asosan yozma dramaturgiya bo‘lmasa ham, lekin bunday teatr san’atkorlari tarixni va o‘z davrlaridagi xalq hayotini, jamiyatdagi va ayrim jamoalardagi muammo va ikir-chikirlarni yaxshi o‘rganib, hayotdagi ayrim shaxsarni, amaldorlarni, mullalarni,

<sup>6</sup> Гафуров.Б.Г. Книга «Тожиклар» нашр. «Ирфон». Душанба, 1998.87.6

boylarni, mirshablarni, zargarlarni, mualliflarni, savdogarlarni va boshqa kasb egalarini nuqsonlarini, yomon hatti-harakatlarini, tovlamachiliklarini fosh qilishga harakat qilar edilar. Shuning uchun xalqqa ko'rsatadigan tomoshalarning tarixini va ish faoliyatini o'rganish uchun 1936-yilda, Hamza nomidagi san'atshunoslik institutining bir guruh ilmiy xodimlari A.L.Troitskaya rahbarligida tashkil qilingan ekspeditsiya natijasida<sup>7</sup> xalq tomosha va teatrлari to'g'risidagi juda ko'p va turli ma'lumotlar to'plangandir.

Musiqali teatr, yani musiqali drama, opera, musiqali komediya, operetta kabi janrlar qachon va qayerda bunyodga kelgan degan savol tug'iladi, ma'lumki, Italiyada XIV asrni oxirlarida Florentsiya shahrida istiqomat qilgan graf Jovanni Bardi di Vernioni tashabbusi bilan, uning saroyida, bir guruh shoirlar, sozanda va xonanda musiqachilar, aktyorlar, rassomlar doimiy ravishda yig'ilib o'z san'atlari bilan o'rtoqlashar edilar. Ular qadimgi Yunon teatrini qaytdan tilash niyatida Esxil, Sofokl va Evripidlarning drama va tragediyalariga murojat qildilar, lekin bu dramaturglarni asarlariga o'z davrida kiritilgan musiqalar XVI asrga qadar etib kelmagani sababli, yangi musiqa bastalaydilar. Qizig'i shundaki, bu to'da a'zolari o'tkazgan ijodiy tajribalari birinchilardan bo'lib, kelgusida yangi uslubli musiqali teatr va musiqali drama, opera, musiqali komediya janrlarini bunyodga kelishiga sabab bo'ladi deb o'yashmagan edilar.

Shunday qilib, Italiyada XIV-XVII asrlardan yangi uslubli musiqali sahna janri paydo bo'ldi. Uni avval "Musiqalidrama" (drama per music), va kelgusi asrdan boshlab "Opera" (itayancha-opera-so'z, harakat, ijod) deb atadilar. Bu ikki atamani ma'nosi bir bo'lsa ham, lekin ularni bir-biridan asosiy farqi quyidagicha: "Musiqali drama"da ishtirok etuvchi personajlar spektakl mazmunidagi dialoglarni oddiy so'z iboralari bilan, monologlar: ariya, arioza, qo'shiq, romans va boshqa ovozli musiqa sadolari orqali ijro etadilar. Shunda ba'zi bir asarlarda ishtirok etuvchi erkaklar va xotin-qizlar ovozlarining farqlanish turlarini oldindan partituraga kiritiladi, ba'zi-bir asarlarda umuman bular ko'rsatilmaydi. Shuning uchun artistlar qanday tabiiy ovozga ega bo'lsalar shunday ijro qilishadilar. operada ishtirok etuvchi personajlar, asosan, dialoglarni-Rechitativ (ital.recitativo, yoki recitare-ifodali o'qish san'ati) orqali ijro qiladi. Rechitativ ikki xil bo'ladi: 1-rechitativ secco-quruq, tez, musqia jo'rligida so'larni burro-burro aytish. 2-rechitativ accom-ohangli, yani musiqa joyrligida so'zlarni ohang (cho'zib) bilan aytis. Bularidan tashqari musiqali drama bilan opera janrlarini farqlarini ajratish qoida uslublari, albatte, ko'p. Lekin, yana bir asosiy farqardan biri shundaki, operada ishtirok etuvchi xotin-qizlar ovozi: koloraturali-soprano, soprano, metso-soprano, alt: erkaklar ovozi: tenor, baritone, bas vas bas-profundo kabi ovozlarga bo'lingan holda operani partiturasiga yoziladi va musiqa asarni har bir ko'rinishida yoki padasida ariya, ariyoza, qo'shiq, xor, balet va rechitativlar to'xtovsiz ijro etiladi. Bularni hammasini operada musiqali dramaturgiya birlashtiradi. Musiqali dramada esa ishtirok etuvchi personajlarni so'z-dialoglari musiqa bilan almashtirilgan holda ijro etiladi. Aytish mumkinki, "Musiqali drama" va "Opera"larni, bir-biridan farq qiluvchi ko'rsatilgan ayrim alomatlari bo'lsada, lekin ularning tuzulishlari bir xildir. Shuning uchun bu uslubdagi musiqali teatr va janrlarni tuzilishi hamma davlatlarda birxildir, lekin ularning ichki hayoti, musiqiy til iboralari, ishtirok etuvchi personajlarning xarakterlari, tafakkuri, milliy ruh bilan sug'orilgan bo'ladi.

<sup>7</sup> Троицкая А.Л. Макола «Из истории народного театра и цирка в Узбекистане». Журнал «Советская этнография», №3, 1948, стр.71

Ovropa va Rossiyada buyodga kelgan opera va balet teatrlar, asarlar va ularni yaratgan kompozitorlar hamda dramaturglar to‘g‘risida tarixiy manbalar mavjud. Ular orqali har bir musiqali teatrning yoki musiqali sahna asarni alohida-alohida bosib o‘tgan yo‘lini va musiqiy xususiyatlarini partitura yoki sahna, plastinkalar, kinofilmlar, audio va videokassetalar orqali tanishish, o‘rganish mumkin.

Musiqali teatrlar Ovropa mamlakatlarida va Rossiyada avval podshohlar, gertsoglar, dvoryanlar, knyazlar va yirik vakillar saroylarida paydo bo‘lgan, keyinchalik saroy ahliga xizmat qildi. XVII asrdan boshlab kata shaharlarda ham musiqali teatrlar qad ko‘tara boshladi. Bu teatrlardan “Musiqali drama”, “Opera-seriya”, “Opera-buffa”, “Opera-balet”, “Musiqali komediya” kabi janrlardagi musiqali sahna asarlar paydo bo‘ldi. XIX asrga kelib Ovropa davlatlarida va Rossiyada opera, balet va operetta san’ati avj ola boshladi. Klassik asarlar va ularni yaratuvchi kompozitorlar erishib chиqa boshladi. XX asrda bu an’ana davom etib kelmoqda.

Evropa uslubidagi milliy teatr va dramaturgiyani yaratishda, M.Behbudiy va uning fikrdoshlari, safdoshlari ergashganlar, o‘z ijodiy faoliyatlarida izlandilar, turli mavzularda sahna asarlarini yozdilar, ijrochi artistlarni ham tarbiyaladilar va teatrda yangi asarlarni tomoshabinlarga namoish qila boshladilar. Masalan: 1913-yildan to 1917-yilning fevral inqilobiga qadar sahna yuzini ko‘rgan asarlar haqida M.Rahmonov “Hamza va o‘zbek teatrda quyidagi misollarni keltiradi: “Teatr dramaturgiyasini yaratishda tanilgan jadid dramaturglari Behbudiy, Nuratulla Qudratullla, Abdulla Badriy, v.b. kabi o‘sayotgan milliy burjuazyaning g‘oyalarini oldinga suruvchi bir necha kata-kichik original pyesalar yozib, yangi yashkil topayotgan jadid teatrlariga taqdim etgan edilar.

Xalq talantlilarni rivojlandirishga g‘amxo‘rlik qilib, havaskorlar to‘garagini, “Qizil shayxana”, “Qizil o‘tovlar”, qozoq san’atkorlarining truppalarini tashkil qildi. Xalqimizning asrlardan beri shakllanib kelayotgan milliy urf-odatlari bilan musiqa merosini yig‘ishga e’tibor qaratilib, kontsertlar, musiqiy spektakllar qo‘yishga harakat qildilar. Bu davrda O‘rta Osiyo respublikalari singari qoraqalpoq musiqa tarixida yangi janr dunyoga keldi. Dastlabki davrlarda xalq musiqasini qayta ishlash: qo‘shiqlar, soz cholg‘ular cholish, xalq kuylarini musiqiy spektakllarga qayta ishlash protseslari a‘lovida ko‘zga tashlana bolshlagan edi. Ko‘p qirrali hunari bilan ko‘zga tashlangan aktyor, dramturg, rejissyor, musiqa ustasi va melodist A.O‘tepov bilan taniqli baxshi-melodist J.Shamuratov ham boshqa kompozitorlardan massalik qo‘shiqlar yaratish bilan pyesalarga kuy tanlashga ijodiya tajribalari “Tenin tapqan qiz”, “Guman”, “Xorliqtan azat” va boshqa pyesalari alohida ahamiyat kasb etadi. 1925-yili To‘rtkulda “Tan nuri” nomli truppa tashkil topadi. 1926-yili yanvar oyidan boshlap bu jamoa Qoraqalpoq truppassi deb nomlanib, keyinchalik 1991-yilga qadar K.S.Stanislavskiy nomidagi Davlat teatrining negizini paydo qildi. 1991-yildan boshlab Bedaq nomidagi Qoraqalpoq musiqali teatri maqomi berildi. “Tan nuri”truppassi ilk artislari To‘rtkulda qishloq pedtexnikumi talabalari va havaskorlardan to‘garak sifatida tashkil topgan edi. Ular orasida qoraqalpoq adabiyoti vakillaridan: Q.Auezov, S.Majitov, A.O‘tepov, A.Begimov, J.Aymurzaev, K.Ubaydullaev, T.Bekimbetov, A.Shamuratova, T.Raxmanova, G.Shiraziyeva, S.Jumaniyazov va boshqalar ovozalarining mahoratlarini ko‘satishgan. 1925-yillari bu jamoaning repetuari qisqa aktli spektakl, intermediya va boshqa asarlardan iborat edi. Bundan boshqa qoraqalpoq va klassik kuylari “Bozatau”, “Shimbay”, “Galgalay”, “Ne dag” kuylari bilan “Nar iydirgen”, “Nama basi”, “Qara jorg‘a”, “Ariuxan”

kuylariga bir ovozli xorlar, deklomatsiya, hazil so‘zli she‘rlar aytilgan. Teatr o‘zining dastlabki o‘n yillik davomida Q.Auezovning “Tilek jolinda”, A.O‘tepovning “Jezdejan”, “Zindan”, “Ashiq zari”, “Shaleke bay”, “Guman”, “Tenin tapqan qiz”, S.Majitovning “Ernazar ala ko‘z” singari musiqiy pyesalari va intermediyalarini sahnaga chiqishiga imkon berdi. Xalq kuylarini pyesaga tanlab olish taniqli dramaturg, rejissyor va artist A.O‘tepovning hissasi juda kattadir. U yaratgan “Jezdejan”, “Nem qaldi”, “Zindan”, “Yar kelipti”, “Ko‘shege shiqsam” intermediyalari bilan kuylari ommaviy xalqni spektakl ko‘rishga qiziqishkarini uyg‘otdi. Shu davr mavzusida yozilgan “Tilek jolinda”, “Tenin tapqan qiz” musiqali dramali pyesalarining teatr sahnasida paydo bo‘lishi juda kata ahamiyatga ega bo‘ldi. Teatr sahnasida taniqli Ozarbayjon kompozitor U.Gadjibekovning “Arshin mol alan”(1934), O‘zbek kompoziroti G.Zafariyniny “Halima”(1934), T.Sodiqov va R.Glierning “Gulsara” (1936), “Layli va Majnun” (1937) pyesalarini sahnalashtirishi teatr san‘atining gullashiga va yana qardosh xalqlar bilan a’loqalarni kuchaytti.

Bu asarlar qoraqalpoq musiqa madaniyatining mukammallahib va rivojlanishida o‘zining yordamini berdi deb o‘yayman. Qardosh xalqlardan olingan bu pyeasalarning prozalik bo‘limi qoraqalpoq tiliga tarjima qilinib, musiqiy-poetik tomonini Ozarbayjon va o‘zbek tillarida ijro qilinar edi (deb ma’lumot beradi Adambaeva.T).

A.O‘tepovning pyesalarga kuy tanlashdagi mohirligini davom ettiruvchi melodist-kompozitor J.Shamuratov edi. U.A.Begimovning “Bul kim”,(1935), S.Majitovning “Bag‘dagul”(1935), M.Daribaevning “Ko‘klen batir”(1939) pyesalariga kuy-qo‘shiqlar tanlagan va V.Tumanyan bilan birqalikda musiqalar yaratdi. Ushbu asar ijrosida ansambli, xor, uvertyura, ariyalar, raqs kuylari barchasi xalqniing qulog‘iga singip ketgan klassik va xalq kuylarini melodic-intanatsion nolalari bilan chiroy bag‘ishlab o‘z o‘rniga qulay qilib foydalangan edi.

## REFERENCES

1. Romanovskaya.E “Muzikalniy teatr Uzbekistana” Jurnal “Sovetskaya musika”, №4, 1937
2. Belyayev.V “Uzbekskiy muzikalniy teatr v Moskve”. Jurnal “Sovetskaya musika”, №6, 1937
3. Троицкая.А.Л. Макола «Из истории народного театра и цирка в Узбекистане». Журнало «Советская этнография», №3, 1948, стр.71
4. Абатбаева Р. Қорақалпоқ композиторлик ижодиётига бир назар “Yangi O‘zbekiston taroqqiyotida madaniyat va san‘atning o‘rnii” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferenstiyasi 2023-yil 23-fevral. 342-347-bet
5. Abatbaeva R. N.Muxammeddinovning “Ajiniyaz” operasida tarixiy obrazlarni ifodalanishi “CURRENT ISSUES OF IMPROVING PERFORMING MUSICAL ART SKILLS: TRADITIONS AND MODERNNETTY” 10.05.2022 Nukus. b.146-151
6. Абатбаева У. А. Арт-Педагогические И Арт-Терапевтические Технологии, Методы Пребывания В Образовании, Формы И Инструменты //Miasto Przyszłości. – 2023. – Т. 40. – С. 496-498.
7. Abdullo S. The Polyphonic Genre in the Work of Rodion Shchedrin //Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 146-149.

8. Абатбаева Р.А. РОЛЬ БАЛЕТА «АЙЖАМАЛ» В КАРАКАЛПАКСКОМ ИСКУССТВЕ Донецкие чтения 2022: образование, наука, инновации, культура и вызовы современности. С-5-7.
9. АБАТБАЕВА Р. КОМПОЗИТОР НАЖИМАДДИН МУХАММЕДДИНОВ ИЖОДИДА ТАРИХИЙ СИЙМОЛАР //Journal of Culture and Art. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 60-66.
10. Abatbaeva, R. (2023). BALLAD GENRE BY COMPOSER NAJIMADDIN MUHAMMEDDINOV. Modern Science and Research, 2(10), 340–343.